



Международная конференция

**ИННОВАЦИОННОЕ РАЗВИТИЕ
НАУКИ И ОБРАЗОВАНИЯ
СЕНТЯБРЬ 2020**

Сборник научных трудов
Павлодар, Республика Казахстан

Available at conferences.kz

В научный сборник вошли научные работы, посвященные широкому кругу современных проблем науки и образования, вопросов образовательных технологий 2020. - 90 с.

Главный редактор
Роза Муслимовна Жамиева

Редакционная коллегия

1.Абильдина Салтанат Куатовна

Заведующая кафедрой педагогики и методики начального обучения, доктор педагогических наук, профессор ККСОН

2.Ильясова Гульжазира Актуреевна

Заведующая кафедрой гражданского и трудового права, кандидат юридических наук, Профессор (Full Professor)

3.Досова Бибигуль Арлбаевна

доцент кафедры всемирной истории и международных отношений, кандидат исторических наук

4.Сабыржан Али Сабыржанович

доцент кафедры аудита, кандидат экономических наук, ассоциированный профессор.

5.Тлеужанова Гульназ Кошкимбаевна

*декан факультета иностранных языков, Кандидат педагогических наук
Ассоциированный профессор*

6.Сейтжанов Олжас Темирбекович

зам начальника КА МВД РК им. Б. Бейсенова, к.ю.н., доцент полковник полиции

7.Аренова Лейла Климентьевна

к.ю.н. доцент кафедры уголовного права, процесса и криминалистики

Издательство не несет ответственности за материалы, опубликованные в сборнике. Все материалы поданы в авторской редакции и отображают персональную позицию участника конференции.

Контактная информация организационного комитета конференции:
Официальный сайт: *conferences.kz*

СОДЕРЖАНИЕ / CONTENT

БИОЛОГИЯ

Дўсматова Лола Хашимовна., Мирзаева Ирода Турдалиевна., Эшонқулов., Шерзод Баходирович., Идрисов Ҳусанжон Абдужабборович., Бойматова Муқаддас СОЯ (GLYCINE HISPIDA L) ИЛДИЗИДАГИ ТУГАНАК БАКТЕРИЯЛАР ТЎПЛАШИГА ЭКИШ МУДДАТЛАРИНИНГ ТАЪСИРИ.....	5
Саттаров М.А., Идрисов.Х.А., Туйғумаралиев А У., Дўсматова Лола Хашимовна СОЯНИНГ (GLYCINE HISPIDA L) СЕЛЕКЦИЯ КЎЧАТЗОРИДА НАВ ВА ТИЗМАЛАРНИНГ ФЕНАЛОГИК КУЗАТУВ НАТИЖАЛАРИ.....	8

ХИМИЯ

Алимова Ф.А, Мирзаева Ш.М ПРОЕКТНАЯ ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ НА ОСНОВЕ ТЕХНОЛОГИИ WEB-QUEST В ОБУЧЕНИИ ХИМИИ.....	11
---	----

ЛИТЕРАТУРА

Дўсбеков Дилмурод Абдуллаевич "АЛПОМИШ" ВА "МАНАС" ДОСТОНЛАРИНИНГ ҚИЁСИЙ ТАДҚИҚИ.....	13
Қодирхон Маҳмудов ШАМСУДДИН САМАРҚАНДИЙНИНГ "АС-САҲОИФУЛ ИЛОҲИЯ" АСАРИ ТАЪРИФИ.....	15
Улдона Абдураҳмонова ҲАЛҚ ҚАЛБИДАН КУЧ ОЛГАН АДИБ.....	18
Улдона Абдураҳмонова ДАРЁДИЛ САМОГА ДИЛ БЕРГАН ШОИР.....	21
Эшонқулова Нуржон Абдужабборовна АБУ НАСР ФОРОБИЙ ТАЛҚИНИДА БАХТ-САОДАТ ФЕНОМЕНИ.....	23

МЕДИЦИНА

Kurbanova Nodirabegim Shukurjon qizi KORONAVIRUS PANDEMIYASI SHAROITIDA SOXTA XABARLAR "EPIDEMIYASI".....	25
Xamroqulova M.A. Fathullaev Sh.Sh. Xikmatullaev Sh.Sh. VAHIMA HURUJLARI BILAN KECHUVCHI KOGNETIV O'ZGARISHLARDA ANTIDEPRESSANT VA TRANKVILIZATORLAR TA'SIRINI QIYOSLASH.....	27
Ахтамова Озода Фозиловна РОЛЬ ЖЕНСКИХ ПОЛОВЫХ ГОРМОНОВ У ЖЕНЩИН С СИНДРОМОМ ИСТОЩЕНИЯ ЯИЧНИКОВ.....	29
Н.Г. Гулямов, З.А. Нурузова, О.И. Эргашов ФЕРТИЛ ЁШДАГИ АЁЛЛАР ЎПКА ВА БҮЙРАК ТЎҚИМАСИДА ПРЕДПАТОЛОГИК ВА ПАТОЛОГИК ЖАРАЁНЛАРНИ ИММУНОЛОГИК СКРИНИНГ ҚИЛИШ НАТИЖАЛАРИ.....	33

ПЕДАГОГИКА

Davronova Gulbahor Numondjonovna. СУТЬ ИННОВАЦИОННЫХ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ТЕХНОЛОГИЙ В ДОШКОЛЬНЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ОРГАНИЗАЦИЯХ.....	35
Xakimova Durdona Alisherovna INGLIZ TILINI MAKTABGACHA TA'LIM DOI'RASIDA O'RGATISHNING MUAMMOLARI.....	37
Бахромова Т.Н ЖАДИДЛАРНИНГ ТАЪЛИМНИ ИСЛОҲ ГИЛИШ БОРАСИДАГИ ХАРАКАТЛАРИ.....	40
Исматова Мухаббат Шавкатовна ГЛОБАЛЛАШУВ ШАРОИТИДА ЁШ АВЛОДНИ МИЛЛИЙ ўОЯ РУҲИДА ТАРБИЯЛАШНИНГ ЗАРУРИЙЛИГИ.....	42
Мадаминова Гулзира Гуламкадирирова ТАЪЛИМИЙ ДРАМА, УНИНГ ТУРЛАРИ ВА ЧЕТТИЛИ ЎҚИТИШДА ТУТГАН ЎРНИ.....	44
Сарсенбаева Райҳон Маханбетовна АЙРИМ ДИДАКТИК ЎЙИНЛИ ТЕХНОЛОГИЯЛАР ХУСУСИДА.....	49

СОДЕРЖАНИЕ / CONTENT

ФИЛОЛОГИЯ

Jamoldin Yoqubov	
TASAVVUFNI TUSHUNISHDA MANBALARNING AHAMIYATI.....	52
Nazarova Dilnoza G'ulomovna	
ONA TILI DARSLARIDA MA'NODOSH SO'ZLARNI O'RGATISH USULLARI.....	55
АЧИЛОВ Шохрух Шарифжон ўғли	
ТРАНСПОЗИЦИЯ КАТЕГОРИЯСИНИНГ НУТ Ф ЖАРАЁНИДА МАХСУС ЛЕКСИК ВА ГРАММАТИК ВОСИТАЛАР ЁРДАМИДА ИФОДАЛАНИШ ХУСУСИЯТЛАРИ.....	58
АЧИЛОВА Зулхумор Пултоана	
ТИЛЛАРНИ ЎРГАНИШ ЖАРАЁНИДА ЎША ХАЛҚИНГ УРФ-ОДАТЛАРИ, МАДАНИЯТИ, ТАРИҲИ ХАҚИДА АНИҚ ТУШУНЧАГА ЭГА БЎЛИШНИНГ АХАМИЯТИ.....	61
Замалеева Элеонора Ильсуревна	
"УПОТРЕБЛЕНИЕ СЛОВ ДРУГИХ ЧАСТЕЙ РЕЧИ В РОЛИ НАРЕЧИЙ (АДВЕРБИАЛИЗАЦИЯ).....	64
Шаҳноза Назарова	
ЭЛБЕК ШЕЪРИЯТИДА ЭРК ТИМСОЛИ.....	69
Ботиров С.	
"КАТТА ЎЙИН" ЁХУД МАРКАЗИЙ ОСИЁДА МАНФААТЛАР ТЎҚНАШУВИ ХУСУСИДА АЙРИМ МУЛОҲАЗАЛАР.....	71
Кадиров Элшод Бахтиярович	
ЛАНДШАФТ ДИЗАЙНИНИНГ ШАКЛЛАНИШИ ВА РИВОЖЛАНИШИ.....	75
Пўлат Қобилов	
ИНТЕЛЛЕКТУАЛ МУЛК ҲУҶУҚИ НИЗОЛАРИНИ ҲАЛ ЭТИШНИНГ МУҶОБИЛ УСУЛЛАРИНИ ЯНАДА КЕНГРОҚ ҚЎЛАШНИНГ ЗАРУРАТИ.....	77
Тураев Акмал Панжиевич	
ҲУҶУҚНИ АМАЛГА ОШИРИШ САМАРАДОРЛИГИГИГА ТАЪСИР ҚИЛУВЧИ ОМИЛЛАР.....	81
Элбек Усмонжонович АЗИЗОВ	
ХОРИЖИЙ МАМЛАКАТЛАР ПОЛИЦИЯ ТИЗИМЛАРИДА ҚОНУНЛАР ИЖРОСИНИ ТАЪМИНЛАШ МЕХАНИЗМИ	85

ONA TILI DARSLARIDA MA'NODOSH SO'ZLARNI O'RGATISH
USULLARI

Nazarova Dilnoza G'ulomovna
Buxoro viloyati Peshku tumani
28-maktabi ona tili va adabiyoti o'qituvchisi
dilnoza_nazarova@mail.ru


Annotatsiya. Ushbu tezisda ona tili darslarida o'quvchilarga ma'nodosh so'zlarni o'rgatish usullari tahlil qilingan. Shuningdek, dars jarayonida yangicha yondashuvlar asosida texnologik jihozlardan foydalanish orqali ma'nodosh so'zlarning turi va ularning bir-biridan uslubiy farqlari, qo'llanish usullari va nutqdagi vazifalarini o'quvchilarga kengroq yoritib berishning bir necha xil usullari tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: ma'nodosh so'zlar, innovatsion texnologiyalar, pedagogik mahorat, mahorat darsi, sinonimlar.

Tildagi so'zlarning ma'lum qismi shakl yoki ma'nosiga ko'ra o'zaro aloqador butunliklarni tashkil etadi. Bunday butunliklardagi so'zlar ana shu xususiyatlari ko'ra ikki guruhni tashkil qiladi:

- 1) omonimlar, omofonlar, omograflar va paronimlar shakliga ko'ra;
- 2) sinonimlar, antonimlar esa o'zaro mazmun uzviyligi yoki zidligiga ko'ra alohida guruhga mansub bo'ladi.

So'zlarning shakl va ma'no munosabatiga ko'ra turlari



Manbaa: http://tkti.uz/uploads/9f271df388_1585767174.pdf

Sinonimlar (yunoncha synonimon-bir xil nomli so'zidan olingan) fonetik tarkibi har xil, ma'nolari bir xil yoki bir-biriga yaqin bo'lgan so'zlardir. Ma'nodoshlikning so'zlar asosida yuzaga kelgan turi leksik (lug'aviy) sinonimlar deyiladi. Masalan, nomus - vijdon, dangasa - yalqov - ishyoqmas - tanbal so'zlari leksik sinonimlardir. Bunday so'zlar, odatda, bir xil so'z turkumiga mansub bo'ladi. Ularning bir umumiyligi ma'no doirasida bog'lanishi esa, sinonimik qator deb yuritiladi. Masalan, vaqt - payt - zamon - fursat - mahal - chog' - kez - mavrid - palla - muddat - dam so'zlari o'zaro sinonimik qator hosil qilgan. Sinonim qator tuzishda asos qilib olingan so'z dominanta (bosh so'z) deb yuritiladi. Dominanta odatda uslubiy jihatdan betaraf va umumiste'mol so'zlaridan bo'lib, sinonim so'zlar lug'atida birinchi o'rinda beriladi. Masalan, yuz - bet - aft - bashara - turq - chehra - oraz - ruxsor sinonimik qatoridagi yuz so'zi betaraf - dominanta bo'lib, aft, bashara turq salbiy, oraz, chehra, ruxsor esa ijobjiy munosabat ifodalash

uchun xizmat qiladi.

Sinonimlarni yuzaga kelishida polisemantik so'zlarning ishtiroki ham alohida ahamiyat kasb etadi. Xususan, polisemantik so'z o'zining har bir ma'nosi bilan boshqa - boshqa sinonim qatorda ishtirok etib, uni boyitadi. Masalan: balo - falokat - ofat; balo - uddaburon - bilog'on- ishbilarmon kabi ma'nodoshlik qatorida balo so'zi o'z va ko'chma ma'nosi bilan ishtirok etgan.

Sinonim qatordagi so'zlar quyidagi xususiyatlari ko'ra o'zaro farqlanadi:

- Sinonim qatordagi so'zlar nutqning biror uslubiga xoslanganligi bilan ham o'zaro farqlanadi. Masalan, doim, hamisha, nuqul, birday so'zlari ko'pincha so'zlashuv uslubida, mazkur sinonim qatorga mansub bo'lgan yakkash, mudom so'zlari esa kitobiy uslubda ko'proq ishlatilishi bilan boshqa ma'nodoshlardan farqlanadi.
- Sinonimik qatordagi ba'zi so'zlar hozirgi tilga nisbatan eskirgan bo'lishi ham mumkin. Shuningdek, ulardan ba'zilari shevalarga xosligi bilan ham ajralib turadi. Masalan: mard, jasur, botir, yovqur, jaysan. Bu sinonimlardan yovqur so'zi eskirganligi, jaysan esa tarixiy - dialektalligi bilan farqlanadi.
- Sinonimik qatordagi so'zlar o'zaro adabiy tilga yoki shevaga xosligi bilan farqlanishi mumkin. Masalan, qidirmoq, axtarmoq, izlamoq, istamoq sinonimik qatoridagi istamoq so'zi shevaga xosdir. Sinonimlar fikrni aniq, maqsadga muvosiq tarzda ifodalash vositalari bo'lib, xuddi mana shu omil ularni yuzaga kelishiga sabab bo'ladi. Sinonimlar yuzaga kelishi va ma'nolariga ko'ra quyidagi turlarni tashkil qiladi:
 - To'liq (sof) sinonimlar. Aynan bir tushunchani anglatish va nutq jarayonida biri o'rnida ikkinchisini ishlatish mumkinligi bilan ajralib turadi. Ular ko'pincha boshqa tillardan kirib kelgan o'zlashma so'zlarning o'zbekcha so'zlar bilan ma'nodoshligi asosida hosil bo'ladi: kuch (o'zb.) - qudrat (ar.), ot (o'zb.) - ism (ar.), ko'klam (o'zb.)-bahor (toj.), tuman (o'zb.)-rayon (rus). Shuningdek, fazo-kosmos, muharrir-redaktor kabi faqat o'zlashma so'zlardan tuzilgan sinonimlar ham to'liq sinonimlardir.
 - Ma'noviy sinonimlar. Bir-biridan nozik ma'nolari ya'ni ijobiy, salbiylici yoki uslubiy va boshqa jihatdan farqlanuvchi ma'nodosh so'zlardan tashkil topadi. Masalan, kului, jilmaydi, tirjaydi, iljaydi, ishshaydi kabi ma'nodosh so'zlar kulish harakatining darajasiga hamda ijobiy va salbiy bo'yodkorligiga ko'ra chirolyi, go'zal, xushro'y, ko'hli, ko'rak, barno, suluv, zebo, latif kabi sinonimlar esa ijobiy bo'yog'ining darajasiga ko'ra farqlanadi.
 - Shartli sinonimlar. Muayyan matndagina ma'nodoshlikka ega bo'ladigan sinonim so'zlardir. Ular ko'pincha she'riyatda kuchli his-tuyg'u ifodalovchi vositalar sifatida qo'llaniladi: Nega kerak shu chiroy, shu o't, Shu yoniq yulduzni ko'zga yashirmoq (H.O.) Parchadagi chiroy, o't, yoniq yulduz o'zaro ma'nodosh so'zlar sifatida ishlatilgan shartli sinonimlardir. Bunday sinonimlar mumtoz adabiyotda qad-sarv, lab-la'l, yuz-oy, hilol kabi tashbehlar asosida ham keng qo'llaniladi.

Xulosa qilib aytganda, ma'nodosh so'zlarni o'rgatishda klaster usullaridan, shunindek, dars jarayonida yuqori texnologiyalardan foydalangan holda prezintatsiyalardan foydalanish samaraliroq va o'quvchilarning mavzuni o'zlashtirishi osonroq bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- 1.Akbarov N. "O'qituvchining pedagogik mahorati". Boshlang'ich ta'lim jurnali, 2-son. -Toshkent, 2007.
- 2.Begmatov E. Hozirgi o'zbek adabiy tilining leksik qatlamlari. Toshkent,

1985.

3.Bozorboyeva M. Fanlararo uzviylikni ta'minlash. Boshlang'ich ta'limganjali, 1-son. -Toshkent, 2005.

4.Fuzaylov S., Xudaybergenova N. Ona tili darsligi. 3-sinf uchun. -T.: "O'qituvchi", 2004.

5.www.ziyonet.uz